

**FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/07.06.2024.T.106.06 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SULTANOVA SEVARA ILES QIZI**

**MAHALLIY XOMASHYO VA MATERIALLAR ASOSIDAGI  
EKSPLUATATSION XOSSALARI YAXSHILANGAN KOMPLEKS  
MODIFIKATSIYALANGAN ISSIQLIK IZOLYATSIYALOVCHI KO‘PIK  
BETON**

**05.09.05 - Qurilish materiallari va buyumlari**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on Technical Sciences**

**Sultanova Sevara Iles qizi**

Mahalliy xomashyo va materiallar asosidagi ekspluatatsion xossalari yaxshilangan kompleks modifikatsiyalangan issiqlik izolyatsiyalovchi ko‘pik beton.....5

**Султанова Севара Илёс кизи**

Комплексный модифицированный теплоизоляционный пенобетон с улучшенными эксплуатационными свойствами на основе местного сырья и материалов.....21

**Sultanova Sevara Iles qizi** Integrated modified thermal insulation foam concrete with improved performance properties based on local raw materials and materials .....39

**E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....43

**FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/07.06.2024.T.106.06 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SULTANOVA SEVARA ILES QIZI**

**MAHALLIY XOMASHYO VA MATERIALLAR ASOSIDAGI  
EKSPLUATATSION XOSSALARI YAXSHILANGAN KOMPLEKS  
MODIFIKATSIYALANGAN ISSIQLIK IZOLYATSIYALOVCHI KO‘PIK  
BETON**

**05.09.05 - Qurilish materiallari va buyumlari**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4026 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saytida ([www.ferpi.uz](http://www.ferpi.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Ilyasov Allanazar To'rexanovich</b> texnika fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Qosimov Ibroxim Erkinovich</b> texnika fanlari doktori, professor <b>Mirzajonov Ma'mirjon Alimovich</b> texnika fanlari nomzodi, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Namangan muhandislik qurilish instituti</b>

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona politexnika instituti huzuridagi PhD.03/07.06.2024.T.106.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Farg'ona ko'chasi 86-uy Tel.: (+99873) 241 12 06, faks (+99873) 241-12-06, e-mail: [www.farpi.uz](http://www.farpi.uz)), kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Farg'ona politexnika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Farg'ona ko'chasi 86-uy. Farg'ona politexnika instituti. Tel.: (+99871) 244-63-30). e-mail: [www.farpi.uz](http://www.farpi.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil \_\_\_ \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**Z.A.Yunusov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, texnika fanlari doktori

**Sh.A.Umarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, texnika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**S.F.Ergashev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, texnika  
fanlari doktori, professor

## **Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda qurilish amaliyotida, oxirgi yillarda bino va inshootlarni barpo qilishda energiyatejamkor va energiyasamarali qurilish materiallaridan foydalanish, xususan yengil serg'ovak betonlarni binolarning to'suvchi konstruksiyalarining qurilishiga keng jalb etish tobora ortib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda, shular jumlasidan, Germaniya, Finlandiya, Yaponiya, AQSh, Gollandiya, Janubiy Koreya, Avstriya, Polsha, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Chexiya, Turkiya kabi mamlakatlarda serg'ovak betonlarning yangi xillarini yaratish va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, xususan avtoklavsiz ko'pik beton ishlab chiqarish uchun mahalliy tabiiy va texnogen xomashyolardan foydalanish, shuningdek, ularning sifatini oshirish uchun foydalaniladigan asbob-uskunalar va modifikatsiyalovchi qo'shimchalarni ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda sanoat chiqindilaridan unumli foydalanishga asoslangan serg'ovak betonlarni ishlab chiqarish hamda shu orqali bino va inshootlarning seysmik bardoshligini, mustahkamligini va ishonchliligini ta'minlashga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunda sanoat chiqindilari asosidagi serg'ovak betonlarning uzoqqa chidamliligi, olovbardoshligi, muzlashga chidamliligi, mustahkamligi, issiqlik izolyatsiyalovchiligi xossalarini va ulardan qurilgan binolar zilzilabardoshligini oshirish hamda devorbop materiallarning narxini pasaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish juda ham muhim va dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda qurilish sohasini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilanish, qurilish materiallarini ishlab chiqarishga energiya va resurs sarfini kamaytirish, shuningdek, resurs hamda energiya tejamkor texnologiyalarni qurilish sohasiga keng tatbiq qilishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi"da "...Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralari ko'rilsin..."<sup>1</sup> bo'yicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, energiya tejamkor va ekologik toza va oldindan belgilangan xossalarga ega bo'lgan qurilish materiallarini ishlab chiqarish, mahalliy xomashyo asosidagi qorishma tarkibini ishlab chiqish uchun mavjud texnologiyalarni yaratish va takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevraldagi PQ-4198-son "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-sonli "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda 2020 yil 27 noyabrdagi PF-6119-sonli "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son "2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlarida nazarda tutilgan va qurilish sanoati bilan bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurs tejamkorlik" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Sanoat korxonalarining chiqindilari asosida serg'ovak beton olish texnologiyasini ishlab chiqish va ularning fizik-mexanik xossalarini yaxshilash bo'yicha jahonda ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borgan, jumladan, T.A.Uxova, Y.N.Kazakov, V.P.Vilejagin, V.A.Pinsker, V.V.Kondratev, R.A.Kurnishev, M.Y.Elistratkin, O.M.Donchenko, N.P.Sajnev, L.V.Sokolovskiy, I.S.Juravlev, A.N.Filatov, Y.Novikc, L.V.Morgun, E.Y.Podluzskiy, L.B.Sokolovskiy, V.N.Goncharik, Y.M.Paplavskis, A.A.Fedin, A.A.Axundov, X.S.Vorobev, Y.P.Gorlov, A.V.Voljenskiy, Y.M.Paplavskis, A.D.Dikun, G.P.Saxarov, D.I.Gladkov, B.P.Danilov, A.Laukaitis, A.P.Merkin, S.A.Grauber, M.Curbach, M.R.Jones, E.P.Kearsley, N.O.Virganskaya, E.M.Chernishov, V.V.Miskov, A.V.Voljenskiy, K.F.Paus, A.Kolosova, T.S.Zemsova, Y.V.Jukina, G.I.Ovcharenko, P.Krivenko, K.V.Gladkix, V.F.Zavadskiy, Y.Y.Kuryatnikov, K.A.Kara va boshqalar. Ushbu taniqli olimlar serg'ovak betonlarni olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borganlar va muayyan darajada ilmiy hamda amaliy natijalarga erishganlar. O'zbekiston Respublikasida serg'ovak betonlarning strukturasi va xossalarini o'rganish, ularning mustahkamlikka oid va ekspluatatsion xossalarini yaxshilash, hamda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi yetakchi mahalliy olimlardan Adilxodjaev A.I., Maxamataliev I.M., Ilyasov A.T., Samigov N.A., Kasimov E.K., Xodjaev S.A., Shipacheva E.V., Toxirov M.K., Goncharova N.I., Mirzajonov M.A., Soy V.M., Abdullayev I.N., Sattorov Z.M., To'laganov A.A., Ashrabov A.B., Komilov X.X., Xolmirzayev S.A., Xamidov A.I., Alinazarov A.X., Gaziev U.A., Rahimov Sh.T., Shaumarov S.S., Rahimov R.A., Askarov B.A., Jalilov A.T., Mamatov X.A., Turgunbaev U.J. va boshqalar va ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Biroq ularning bajargan tadqiqotlarida avtoklavsiz ko'pik betonning tarkibiga mahalliy xomashyodan olinuvchi modifikatsiyalovchi qo'shimchalar kompleksini kiritish yo'li bilan ekspluatatsion xossalarini yaxshilash masalalari juda ham kam o'rganilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muasasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universitetining №521 T/2 "Bazalt, metall va shisha tolalar asosida standartlarga mos hamda seysmik mustahkamlik konstruksiyasiga ega fibrobeton olish texnologiyasini yaratish" (2023-2024-yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** – mahalliy modifikatsiyalovchi qo'shimchalar: «VESTA HPR 801» superplastifikatori va mikrokremnezyomni kompleks ravishda

qo'llash yo'li bilan ekspluatatsion ko'rsatkichlari yaxshilangan issiqlik izolyatsiyalovchi avtoklavsiz qotuvchi ko'pik betonlarning tarkiblari va olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

turli qo'shimchalar bilan modifikatsiyalangan issiqlik izolyatsiyalovchi avtoklavsiz ko'pik betonni ishlab chiqarish va amalda undan foydalanishning mavjud tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish;

ekspluatatsion xossalari yaxshilangan issiqlik izolyatsiyalovchi avtoklavsiz ko'pik beton olish uchun modifikatsiyalovchi kimyoviy va mineral qo'shimchalarni tanlab olishni nazariy jihatdan asoslab berish;

ekspluatatsion xossalari yaxshilangan avtoklavsiz ko'pik betonning samarali tarkiblarini ishlab chiqish;

kompleks modifikatsiyalangan ko'pik beton ekspluatatsion xossalarining ko'rsatkichlari va modifikatsiyalovchi qo'shimchalarning miqdori o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni aniqlash;

ekspluatatsion xossalari yaxshilangan avtoklavsiz ko'pik betonni olishning texnologiyasini ishlab chiqish;

kompleks modifikatsiyalangan ko'pik betonning ishlab chiqilgan yangi tarkibini tajribaviy ishlab chiqarishga joriy etish va texnik iqtisodiy samaradorligini baholash.

**Tadqiqot obyekti** – mahalliy xomashyo va materiallar asosida olinuvchi kompleks modifikatsiyalangan issiqlik izolyatsiyalovchi avtoklavsiz ko'pik beton.

**Tadqiqot predmeti** - mahalliy xomashyo va materiallar asosida olinuvchi kompleks modifikatsiyalangan issiqlik izolyatsiyalovchi ko'pik betonning tarkibi, texnologiyasi va xossalari.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotlarda issiqlik-izolyatsiyalovchi ko'pik betonlarning ekspluatatsion xossalarini aniqlashning standartlashtirilgan usullari, fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari, kompozitsion qurilish materiallari tarkibini loyihalash va optimallashtirishning matematik usullari, tadqiqot natijalarini qayta ishlashning statistik usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- issiqlik izolyatsiyalovchi avtoklavsiz ko'pik betonning optimallashtirilgan tarkibini tanlash va strukturasi shakllantirishda mahalliy «VESTA HPR 801» polikarboksilatli superplastifikatori va mikrokremnezyom qo'shimchalarining optimal miqdorlarda tarkibga kiritilishiga asoslangan issiqlik izolyatsiyalovchi ko'pik betonlarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning tamoyillari isbotlangan;

-ko'pik beton qorishmasini «VESTA HPR 801» polikarboksilatli superplastifikatori bilan plastifikatsiyalashning o'ziga xos bo'lgan mexanizmi aniqlangan;

- issiqlik izolyatsiyalovchi avtoklavsiz ko'pik beton qorishmasining tarkibiga «VESTA HPR 801» polikarboksilatli superplastifikatori va mikrokremnezyomning optimal miqdordagi dozalarining kiritilishi natijasida

ko'pik beton ekspluatatsion xossalarning yaxshilanishiga olib keluvchi sinergetik samaraning hosil bo'lishi aniqlangan;

- kompleks modifikatsiyalangan issiqlik izolyatsiyalovchi avtoklavsiz ko'pikbetonning siqilishga mustahkamligi, o'rtacha zichligi va issiqlik o'tkazuvchanligi ko'rsatkichlarining ushbu kompozitsion materialning retseptura-texnologik omillariga nisbatan matematik modellari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

-mahalliy modifikatsiyalovchi qo'shimchalar asosidagi ekspluatatsion xossalari yaxshilangan o'rtacha zichligi 400 dan 500 kg/m<sup>3</sup> gacha bo'lgan issiqlik izolyatsiyalovchi avtoklavsiz ko'pik betonning samarali tarkiblari ishlab chiqilgan.

- OAO "O'zmetkombinat" korxonasida katta hajmlarda hosil bo'luvchi sanoat chiqindisi - mikrokremnezyomning ishlatilishining ko'zda tutilishi evaziga issiqlik izolyatsiyalovchi avtoklavsiz ko'pik beton ishlab chiqarishning mahalliy xomashyo bazasi sezilarli darajada kengaytirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi** tadqiqotlar zamonaviy vositalar va standart usullardan foydalangan holda amalga oshirilganligi bilan bog'liq. Tajribalar me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq o'tkazildi, nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalari muvofiqlashtirildi va amalda tatbiq etildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati issiqlik izolyatsiyalovchi avtoklavsiz ko'pik beton qorishmasining tarkibiga «VESTA HPR 801» polikarboksilatli superplastifikatori va mikrokremnezyomdan iborat modifikatsiyalovchi qo'shimchalarni optimal miqdordagi dozalarining birgalikda kiritilishi natijasida ko'pik beton ekspluatatsion xossalarning yaxshilanishiga olib keluvchi sinergetik samara hosil bo'lishining aniqlanganligi bilan izohlanadi. Tadqiqotlar natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy qo'shimchalar: «VESTA HPR 801» polikarboksilatli superplastifikatori va mikrokremnezyom bilan kompleks modifikatsiyalangan o'rtacha zichligi 400 dan 500 kg/m<sup>3</sup> gacha bo'lgan ekspluatatsion xossalari yaxshilangan issiqlik izolyatsiyalovchi avtoklavsiz ko'pik betonning samarali tarkiblari ishlab chiqilganligi, hamda respublikamizda issiqlik izolyatsiyalovchi avtoklavsiz ko'pik betonni ishlab chiqarishda mahalliy xomashyo bazasining sezilarli darajada kengaytirilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot natijalari amalda tatbiq etish imkoniyati mahalliy xomashyo va materiallar asosidagi ekspluatatsion xossalari yaxshilangan kompleks modifikatsiyalangan issiqlik izolyatsiyalovchi ko'pik betonning tarkibi va texnologiyasini tadqiq qilishdan olingan ilmiy natijalar asosida:

Olingan issiqlik izolyatsiyalovchi ko'pik betonning tarkiblari qurilish materiallarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "EVROBETON" MCHJ korxonasida ishlab chiqarishga joriy qilingan ("Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi" vazirligining 2024-yil "01"-noyabrdagi 03-07/01-3325-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'pik-betonning mustahkamligini oshirish bilan birga, sementli bog'lovchi sarfini 50 foizga tejash imkoniyati

yaratilgan. Bunda kutilayotgan iqtisodiy samara  $1 \text{ m}^3$  ko'pik-beton uchun o'rtacha 93000,9 so'mni, bir yilda esa 348,753 mln. so'mni tashkil etgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Ishning asosiy mazmuni dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy nashrlar chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shu jumladan, SCOPUS bazasiga kiruvchi nashrlarda 4 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta, hamda 4 ta respublika jurnallarida nashr qilingan. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi qoshidagi intellektual mulk agentligi tomonidan 1 ta kompyuter hisoblash dasturlariga guvohnomalar olingan.

**Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 143 betni tashkil etib, asosiy qismi 115 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya tadqiqotini bajarishning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan. O'zbekiston Respublikasida fan va texnika rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq ma'lumotlar keltirilgan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati belgilangan, tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga tadbiq etilishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi, shuningdek chop etilgan ilmiy ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

**Disstatiyaning birinchi bobi "Muammoning o'rganilganlik darajasi"** da qurilish industriyasi sohasida mikrokremnezyomni qo'llash quyidagi natijalarga ya'ni yuqori mustahkam betonlarni (siqilishdagi mustahkamligi 100 MPa gacha, avtoklav ishlov berilganda esa 240 MPa gacha etuvchi) olish, va ularda kechadigan fizik va kimyoviy jarayonlar, suv shimuvchangligini bartaraf qilish usullari va kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyaviy chora-tadbirlar, texnik adabiyotda berilgan maqolalar va ma'lumotlarning tahliliy obzori ko'rib chiqilgan. Ko'rib chiqilgan omillarning tahlili natijasida mikrokremnezyom qo'shimchasining qo'shilishi suv o'tkazmaslik qobiliyatini 50% gacha (tarkibiga sementning massasiga nisbatan 20% gacha mikrokremnezyom qo'shimchasi qo'shilgan betonning suv o'tkazmaslik bo'yicha markasi W16 ni tashkil etadi), sulfatga chidamliligini 100% gacha oshiradi, tarkibiga 6 % mikrokremnezyom qo'shimchasining qo'shilishi suv-sement nisbati  $S/S=0,45$ ga teng bo'lganda muzlashga chidamliligi bo'yicha markasi F300 bo'lgan betonlarni tarkibini ishlab chiqish muammolari kam o'rganilganligi aniqlangan. Erta muddatlardagi mustahkamligi yuqori bo'lgan betonlarni (siqishga mustahkamligi bir sutkalik muddatda 63 MPa, 28 sutka o'tgandan so'ng – 124 MPa, 1 yil o'tgandan so'ng – 127 MPa ni tashkil etadi) olish mumkinligi ko'rsatilgan. Yuqorida bayon qilingan taxminlarni inobatga olgan holda dissertatsiyaning asosiy maqsadi shakllantirilgan, xususan: mikrokremnezyomning betonning tarkibiga uning siqishga

mustahkamligi, muzlashga chidamliligi, birikish mustahkamligi, yedirilishga chidamliligini oshirish va issiqlik o'tkazuvchanligini kamaytirish va qorishmaning tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish.

Bajarilgan tadqiqotlarning tahlili natijasida tadqiqotlarning maqsad va vazifalari aniqlangan va ishchi gipoteza shakllantirilgan.

**Ishchi gipoteza.** Mikrokremsiyomning sirtida kislotali-asosli tabiatli reaksiyaga kirishishga qobiliyatli faol markazlarning mavjudligi va polikarboksilat asosidagi superplastifikatorning yuqori darajada suv talabchanlikni kamaytirish qobiliyatini e'tiborga olgan xolda ularni kompleks tarzda turli dozalarda tarkibda qo'llanilishi yo'li bilan ko'pik beton qorishmasini tayyorlash davridayoq uning struktura hosil qilishini maqsad sari yo'naltirish va kerakli xossalari ko'rsatkichlariga ega bo'lgan ko'pik beton buyumlarni olish imkonli hisoblanadi.

**Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Tadqiqot usullari va qo'llaniladigan materiallarning xossalari"** da texnik ko'rsatkichlar, dastlabki xomashyo va materiallarning kimyoviy, fizik, fizik-mexanik xossalari keltirilgan, shuningdek, plastifikatsiyalovchi kimyoviy qo'shimchalar va mikrokremsiyom bilan modifikatsiyalangan issiqlik izolyatsiyalovchi avtoklavsiz ko'pik beton kompozitsiyalar tarkibini ishlab chiqish, shuningdek ularning asosiy fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalari batafsil yoritib berilgan.

Eksperimental tadqiqotlarda issiqlik izolyatsiyalovchi ko'pik beton qorishmalarni tayyorlashda quyidagi boshlang'ich materiallardan foydalanilgan:

Bog'lovchi sifatida Ohangaron sement zavodining GOST 31108-2020 bo'yicha SEM I 42,5 N markali sementi, mayda to'ldiruvchi sifatida ko'pik beton tarkibida markasi MK-85 TU 5743-048-02495332-96, "O'zmetkombinat" AJning quruq holatdagi mikrokremsiyom ishlatilgan. Mikrokremsiyomning to'kilma zichligi  $600 \text{ kg/m}^3$ , kimyoviy qo'shimcha sifatida Ko'pik betonning tarkibida ko'pik hosil qilgichlar sifatida silikonlar asosidagi "Penta Pav 430A" ko'pik hosil qilgich, sintetik ko'pik hosil qilgichlar "Biofoam C", "Makspen" hamda proteinli ko'pik hosil qilgichlar "Ompor", "Biofoam V" sinab ko'rildi va ishlatilgan.

Plastifikatsiya qiluvchi qo'shimchalar sifatida quruq kukun ko'rinishidagi kompleks qo'shimcha (naftalinformaldegidli superplastifikator+qotishni tezlashtiruvchi) «Relamiks-M», polikarboksilatlar asosidagi Superplastifikator «VESTA HPR 801», zichligi  $1,09 \text{ g/sm}^3$  bo'lgan suyuqlik ko'rinishida, polikarboksilat efiri asosidagi Superplastifikator «GLENIUM SKY 591», zichligi  $1,07 \text{ g/sm}^3$  suyuqlik ko'rinishida plastifikatorlar bilan sement eritmasida aniqlash imkonini beradi.

**Dissertatsiyaning uchinchi bobi "Issiqlik izolyatsiyalovchi ko'pik beton tarkibida qo'llaniladigan qo'shimchalarni tanlash"** yuza faol moddalarning asosiy tavsiflari tahlil qilingan, yangi avlod plastifikatorlarini issiqlik izolyatsiyalovchi ko'pikbetonlarda qo'llash imkoniyati ko'rib chiqilgan, ko'pikbetonning siqilishdagi mustahkamligini uning matritsasi mustahkamligidan aniqlash imkonini beruvchi qonuniyat keltirib chiqarilgan.

Eng yaxshi sifat ko'rsatkichlariga va sement tizimiga eng kam destruktiv ta'sir ko'rsatadigan ko'pik hosil qiluvchini aniqlash maqsadida har bir ko'pik hosil

qiluvchi uchun quyidagi xususiyatlar aniqlandi: ko'pikning karraligi, vaqt bo'yicha barqarorligi, ularning suvdagi eritmasining turli konsentratsiyalarida ko'pikdan foydalanish koeffisienti, ushbu ko'pik hosil qiluvchilarning turli foizli miqdoriga ega bo'lgan sement hamirining harakatchanligi va qamrash muddatlari (boshlanishi va tugashi), sement toshining mustahkamligi. Yuza-faol moddalar (YuFM) ning mavjudligi matritsaning mustahkamligini pasaytiradi, ammo oqsil ko'pik hosil qiluvchisi ishtirokida bu ta'sir kamroq darajada namoyon bo'ladi, chunki Nesterova L.L., Luginina I.G. va Shaxova L.D. fikriga ko'ra, sintetik ko'pik hosil qiluvchisi bilan sementni eritmaga gidratatsiya qilinganda, oqsil ko'pik hosil qiluvchisi bilan solishtirganda, oqsil ko'pik hosil qiluvchisi bilan gidratatsiya qilinganda yuzaga keladigan yangi hosilalar soni ko'proq bo'ladi. Eritmaning harakatchanligi va qotish muddati kabi texnologik ko'rsatkichlar bo'yicha sement hamiri sintetik ko'pik hosil qiluvchiga nisbatan oqsilli ko'pik hosil qiluvchiga kamroq ta'sirchan. Biroq, keyingi tadqiqotlar uchun "Penta Pav 430A" sintetik ko'pik hosil qiluvchisi tanlandi, chunki ko'pik hosil qiluvchining karraligi kamida 10 bo'lishi lozim. Buning sababi, birinchidan, karralilik qanchalik yuqori bo'lsa, o'rtacha zichlikdagi kerakli markali ko'pikli betonni tayyorlash uchun shunchalik kam miqdor talab etiladi. Natijada, ko'pik hosil qiluvchining bog'lovchi moddaning gidratatsiyasiga salbiy ta'siri ham kamroq bo'ladi. Ikkinchidan, suv-sement nisbati teng bo'lganda, sintetik ko'pik hosil qiluvchi qo'llanilganda eritmada (sement+suv) ko'proq suv bo'ladi, oqsilli ko'pik hosil qiluvchi ishlatilganda esa ko'proq suv ko'pik tayyorlashga sarflanadi. Suv-sement nisbati ko'pik hosil qiluvchining xususiyatlarini hisobga olgan holda batafsil yondashuvni talab etadi. Ma'lumki, eritma aralashmasidagi ortiqcha suv miqdori keyinchalik ko'piklangan sement toshining mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Polikarboksilatlar asosidagi "MC-Power-Flow-3100" Superplastifikatori sement hamiriga kam miqdorda qo'shimcha qo'shilganda eng yaxshi suvni kamaytiruvchi ta'sir ko'rsatdi. Plastifikatorlar ko'pikdan foydalanish koeffisientiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi ("GLENIUM SKY 591" Superplastifikatori "ko'pikni so'ndirish" xususiyatiga ega). Plastifikator qo'shimchali betonlar tarkibini tanlashda buni hisobga olish zarur.

Eritma aralashmasiga plastifikatorlar qo'shilishi sement zarrachalarining solvat qobig'idagi bog'langan suv miqdorini o'zgartirishga olib keladi. Qattiq faza yuzasiga sirt-faol moddalarning adsorbsiyalanishi natijasida solvat qobig'idagi suv miqdori kamayadi, erkin suv miqdori esa ortadi. Bu esa aralashmaning reologik xususiyatlarini yaxshilaydi, biroq sementning tuzilma hosil qilish va qotish jarayonlari biroz sekinlashadi.

1-rasmga muvofiq, ko'pikli betondagi plastifikatsiyalovchi qo'shimchalarning foizini aniqlash usuli eritma aralashmasining harakatchanligini aniqlashga asoslanadi. Bu harakatchanlik Suttard viskozimetri yordamida GOST 23789 bo'yicha aniqlanadi.

Natijada, sement asosidagi ko'pikbeton uchun o'zgaruvchilari me'yorlashtirilgan quyidagi regressiya tenglamalari olindi.

$$Y=29,74+6,85X_1+10,7X_2+1,15X_1X_2+0,93X_{12}+1,92X_{22}, (1)$$

“Relamiks-M” superplastifikatori va qotishni tezlashtiruvchisi bo‘lgan qorishma uchun:


$$Y=29,31+8,331X_1+13,56X_2+1,33X_1X_2+1,69X_1^2+3,11X_2^2, (2)$$

“GLENIUM SKY 591” Superplastifikatorli qorishma uchun:


$$Y=25,27+7,11X_1+11,4X_2+0,08X_1X_2+0,13X_1^2+3,78X_2^2, (3)$$

bu erda Y – qorishma aralashmasining Suttard viskozimetri bo‘yicha diametri, sm;


X1 – suv-sement nisbati; X2 – plastifikasiyalovchi qo‘shimchalarning miqdori %.



1-rasm. Sement qorishmasining suv sement nisbati va Superplastifikator «VESTA HPR 801» ning miqdoriga bog‘liq bo‘lgan harakatchanligi



2-rasm. Sement qorishmasining suv-sement nisbati va «Relamiks-M» superplastifikatorining miqdoriga bog‘liq bo‘lgan harakatchanligi



3-rasm. Sement qorishmasining suv-sement nisbati va «Relamiks-M» superplastifikatorining miqdoriga bog‘liq bo‘lgan harakatchanligi

(2, 3) tenglamalar tajribani X1 ning 0,38 dan 0,46 gacha va X2 ning 0 dan 1% gacha oralig‘ida to‘g‘ri tasvirlaydi, (4) tenglama esa X1 ning 0,38 dan 0,46 gacha va X2 ning 0 dan 2% gacha oralig‘ida mos keladi.

Suyuqlanish diametri Suttard bo‘yicha va suv-sement nisbati (S/S) bo‘yicha berilgan plastiklashtiruvchi qo‘shimchaning foizli tarkibi olinadi, undan o‘rtacha

zichligi 400 dan 500 kg/m<sup>3</sup> gacha bo'lgan ko'pikli beton tarkibini hisoblashda foydalanish mumkin.

Ko'pikbetonning fizik-mexanik (o'rtacha zichlik, namlik, siqilishdagi mustahkamlik) va issiqlik-texnik (issiqlik o'tkazuvchanlik) xususiyatlariga plastifikatorlar miqdorining ta'sirini aniqlash maqsadida bir qator tajribalar o'tkazildi. "Penta PAV 430A" ko'pik hosil qiluvchi modda yordamida suv-sement nisbati 0,38, 0,42 va 0,46 bo'lgan ko'pikbeton namunalari tayyorlandi. Plastifikator shunday miqdorda qo'shildiki, bunda dastlabki aralashmaning Suttard bo'yicha yoyilishi 20, 25, 30 santimetrni tashkil etdi.

"Relamiks-M" va "GLENIUMSKY 591" plastifikatsiyalovchi qo'shimchalarning qo'llanilishi SN 277-80 ga muvofiq standart harakatchanlikka nisbatan eritma harakatchanligining pasayishiga olib keladi. Ko'pikli beton tarkibini hisoblashda buni hisobga olish zarur. "Relamiks-M" superplastifikatori va qotishni tezlashtiruvchisi hamda "VESTA HPR 801" superplastifikatori qo'llanilganda ko'pikbeton namunalari mustahkamligining eng yuqori o'sishi S/S nisbati 0,42 bo'lganda, "GLENIUM SKY 591" Superplastifikatori qo'llanilganda esa S/S nisbati 0,38 bo'lganda kuzatiladi.


Nazorat ko'pik beton namunasi (plastifikatorlarsiz) va plastifikatsiyalovchi qo'shimchalar kiritilgan namunalar uchun rentgenfazali tahlil o'tkazildi. Tahlil natijalari 1-jadvalga kiritildi.

### 1-jadval

#### Nazoratga oid ko'pik beton namunasi va plastifikatsiyalovchi qo'shimchalar qo'shilgan namunalarning rentgen-fazali tahlil natijalari

Namuna nomi	Birikmalar soni, %	
	3CaO·SiO <sub>2</sub>	Ca (OH) <sub>2</sub>
Qo'shimchalarsiz nazoratga oid (qorishmaning Suttard bo'yicha yoyilish diametri 25 sm)	29,81	60,31
Superplastifikator «Relamiks-M» qo'shilgan (qorishmaning Suttard bo'yicha yoyilish diametri 25 sm)	31,06	49,70
Superplastifikator «GLENIUM SKY 591» qo'shilgan (qorishmaning Suttard bo'yicha yoyilish diametri 25 sm)	35,46	56,17
Superplastifikator «GLENIUM SKY 591» qo'shilgan (qorishmaning Suttard bo'yicha yoyilish diametri 25 sm)	43,18	47,98


Rentgen-fazali tahlil natijalari shulardan dalolat beradiki, plastifikatsiyalovchi qo'shimchalar qo'shilganda sementning gidratatsiyasi jarayoni biroz sekinlashadi. 3-rasmga muvofiq plastifikatorlar bilan modifikatsiyalangan ko'pik beton namunalari mustahkamligining ortishi gidratatsiya mahsullari solishtirma sirtining o'sishi, yangi hosil bo'lgan kristallar o'lchamining kamayishi va plastifikatsiyalangan sement toshining birlik hajmida yangi hosilalar sonining ortishi bilan tushuntiriladi.




4-rasm. Qo'shmchalarsiz va plastifikasiyalovchi qo'shimchalar qo'shilgan ko'pik beton namunalari

Dissertatsiyaning to'rtinchi "Issiqlik izolyatsiyalovchi ko'pik betonning tarkibida mikrokremnezyom va plastifikatorni kompleks qo'llashning ko'pik beton tavsiflariga ta'siri" bobida mikrokremnezyomni issiqlik izolyatsiyalovchi ko'pik betonlarda qo'llash imkoniyati va uning "VESTA HPR 801" Superplastifikatori bilan birgalikda ko'pik betonning fizik-mexanik hamda issiqlik-texnik xususiyatlariga ko'rsatadigan ta'siri aniqlandi.

5 va 6-rasmlarga muvofiq, ko'pikbeton tarkibidagi mikrokremnezyom va "VESTA HPR 801" plastifikatori miqdorini aniqlash yondashuvi standart usulga ko'ra Suttard viskozimetri yordamida aniqlanadigan qorishma harakatchanligini aniqlashga asoslanadi.



5-rasm – Ko'pik beton qorishmasi harakatchanligining mikrokremnezyom miqdoriga (10 % dan 30 % gacha) va suv-qattiq modda nisbati (0,6 dan 0,8



6-rasm – Qorishma harakatchanligining mikrokremnezyomning miqdori (40 % dan 60 % gacha) va suv-qattiq modda nisbatiga (0,8 dan 1,0 gacha) bog'liqligi

### **gacha) omillariga nisbatan o'zgarishi**

Sement va mikrokremnezyom asosidagi ko'pik beton uchun quyidagi normalangan o'zgaruvchili regressiya tenglamalari olindi.


Sinovlarning natijalariga ko'ra 10 dan 30% gacha mikrokremnezyom qo'shimchali va 0,6 dan 0,8 gacha S/Q li eritma aralashmasi uchun normalashtiruvchi o'zgaruvchilar bilan regressiya tenglamasi olindi:

$$Y=26,04+7,83X_1 - 2,83X_2 +0,81X_1X_2 - 0,41X_1^2+0,59X_2^2, (4)$$


Laboratoriya sinovlari natijalariga ko'ra 40 dan 60 % gacha mikrokremnezyom qo'shimchali va suv-qattiq modda nisbati  $V/T =0,8-1,0$  bo'lgan ko'pik beton qorishmasi uchun me'yorlashtirilgan o'zgaruvchilarga nisbatan quyidagi regressiya tenglamasi olindi:

$$Y=30,51+5,51X_1 - 2,47X_2 - 0,3X_1X_2 - 0,97X_1^2 +0,059X_2^2 (5)$$

bu erda Y Suttard bo'yicha ko'pik beton qorishmasi yoyilmasining diametri, sm;  
X1 – suv-qattiq modda nisbati; X2 – mikrokremnezyomning tarkibdagi miqdori, %.



**7-rasm. Ko'pik beton qorishmasining tarkibdagi mikrokremnezyom miqdori (10 % dan 30 % gacha) va «VESTA HPR 801» superplastifikatorining miqdoriga (0,4% dan 1,2% gacha) nisbatan suv-qattiq modda nisbati S/Q=0,38 bo'lgandagi harakatchanligi**



**8-rasm. Ko'pik beton qorishmasining tarkibdagi mikrokremnezyom miqdori (40 % dan 60 % gacha) va «VESTA HPR 801» superplastifikatorining miqdoriga (0,8% dan 1,6% gacha) nisbatan suv-qattiq modda nisbati S/Q=0,42 bo'lgandagi harakatchanligi**

Ko'pikli beton aralashmasining harakatchanligi mikrokremnezyom miqdori ortishi bilan kamayadi. Shunga ko'ra, SN 277-80 bo'yicha aralashmaning zarur harakatchanligini ta'minlash uchun suv-qattiq nisbatini oshirishga to'g'ri keladi. Bu esa keyinchalik tayyor ko'pik betonning namligini oshiradi. Shu sababli, mikrokremnezyomni eritma aralashmasining suv-qattiq nisbatini va tayyor ko'pik

betonning namligini kamaytiruvchi plastifikatsiyalovchi qo‘shimcha bilan birgalikda ishlatish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

“VESTA HPR 801” Superplastifikatori asosidagi sement, mikrokremnezyom asosidagi ko‘pik beton uchun me‘yorlangan o‘zgaruvchili quyidagi regressiya tenglamalari olindi.

Laboratoriya sinovlari natijalariga ko‘ra 10% dan 30 % gacha mikrokremnezyom qo‘shimchali va suv-qattiq modda nisbati S/Q =0,42 ga teng bo‘lgan ko‘pik beton qorishmasi uchun me‘yorlashtirilgan o‘zgaruvchilarga nisbatan quyidagi regressiya tenglamasi olindi:

$$Y=25,62213-5,28185X_1+9,730608X_2+0,125X_1X_2+0,49088X_1^2-1,15912X_2^2, (6)$$

bu erda Y – Suttard bo‘yicha ko‘pik beton qorishmasi yoyilmasining diametri, sm; X1 – mikrokremnezyom miqdori, %; X2 – «VESTA HPR 801» superplastifikatori miqdori, %.

Laboratoriya sinovlari natijalariga ko‘ra 40% dan 60 % gacha mikrokremnezyom qo‘shimchali, 0,8% dan 1,6% gacha «VESTA HPR 801» Superplastifikatori qo‘shilgva va suv-qattiq modda nisbati V/T =0,42 ga teng bo‘lgan ko‘pik beton qorishmasi uchun me‘yorlashtirilgan o‘zgaruvchilarga nisbatan quyidagi regressiya tenglamasi olindi:

$$Y=24,1-1,88X_1+6,082X_2+1,125X_1X_2-0,18X_1^2-1,38X_2^2, (7)$$

bu erda Y – Suttard bo‘yicha ko‘pik beton qorishmasi yoyilmasining diametri, sm; X1 – mikrokremnezyom miqdori, %; X2 – «VESTA HPR 801» superplastifikatori miqdori, %.

(7)-tenglama X1 10 foizdan 30 foizgacha va X2 0,4 dan 1,2 gacha bo‘lgan oraliqda tajribani etarli darajada tavsiflaydi, (8)-tenglama esa X1 40 foizdan 60 foizgacha va X2 0,8 dan 1,6 gacha bo‘lgan oraliqda tajribani to‘g‘ri ifodalaydi.


Ko‘pik beton ishlab chiqarishda “O‘zmetkombinat” AJning quruq holatdagi mikrokremnezyomidan foydalanish mumkinligini, hamda ushbu mikrokremnezyom va «VESTA HPR 801» Superplastifikatoridan iborat kompleks qo‘shimchani ko‘pik betonning siqilishga mustahkamligi, namligi va issiqlik o‘tkazuvchanligiga ta‘sirini aniqlash uchun bir qator eksperimentlarning seriyasi o‘tkazildi. Ko‘pik beton namunalarini tayyorlashda Penta PAV 430 A ko‘pik hosil qilgichidan foydalanildi. Yuqorida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan ma‘lum bo‘lishicha, 30% gacha mikrokremnezyomni ko‘pik beton tarkibiga kiritish uning mustahkamligini 40 % gacha oshiradi. Eksperimentlarda ko‘pik betonning tarkibidagi mikrokremnezemning miqdori 10% dan 60 % gacha diapazonda o‘zgartirildi.

Mikrokremnezyom miqdorining (qattiq komponentlar massasiga nisbatan olganda 60% gacha) namlik, siqilishdagi mustahkamlik va quruq holatdagi issiqlik o‘tkazuvchanlikka ta‘sirini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan keyingi eksperimental tadqiqotlarning natijalari 2-jadvalda keltirilgan.


**Mikrokremnezyom 0÷60 % gacha miqdorda qo‘shilgan hamda mikrokremnezyom va «VESTA HPR 801» superplastifikator kompleks ravishda qo‘shilgan ko‘pik betonning fizik-mexanik tavsiflari**

Mikrokremnezyom miqdori, %	Superplastifikatorsiz				Superplastifikatorli			
	O‘rtacha zichlik, kg/m <sup>3</sup>	Namlik, %	Siqishda mustahkamlik, MPa	Quruq holatda issiqlik o‘tkazuvchanlik, Vt/(m <sup>•</sup> S)	O‘rtacha zichlik, kg/m <sup>3</sup>	Namlik, %	Siqishda mustahkamlik, MPa	Quruq holatda issiqlik o‘tkazuvchanlik, Vt/(m <sup>•</sup> S)
0	440	29,0	0,64	0,106	450	19,5	1,19	0,096
10	450	33,5	1,53	0,088	440	16,4	1,55	0,105
20	450	38,3	1,98	0,120	450	24,1	1,47	0,110
30	450	41,1	2,08	0,120	440	25,0	1,73	0,106
40	440	40,8	1,42	0,105	450	14,5	1,39	0,086
